
VILOYAT HOKIMI XITOYNING HENAN RUITE THERMAL PIPELINE TECH CO.,LTD KOMPANIYASI VAKILLARINI QABUL QILDI

Viloyat hokimi Xayrullo Bozorov Xitoyning Henan ruite thermal pipeline tech Co.,Ltd kompaniyasi direktori Yu Lukun boshchiligidagi kompaniya vakillarini qabul qildi.

Uchrashuvda Xitoy kompaniyasi tomonidan viloyatimizda isitish tizimida yangi istiqbolli loyihalarni amalga oshirish masalalari muhokama qilindi.

So'nggi yillarda xitoylik ishbilarmonlar o'rtasida ko'p tarmoqli hamkorlik olib borilayotganini qayd etgan viloyat rahbari, ushbu yo'nalishda amalga oshiriladigan loyihalar nafaqat Farg'ona uchun balki boshqa hududlar uchun ham dolzarb ahamiyat kasb etishini bildirdi.

Mehmonlarga viloyatdagи issiqlik tizimi haqida ma'lumotlar berildi.

Xitoy kompaniyasi rahbari Yu Lukun isitish tizimida zarur bo'lgan mahsulotlarni ishlab chiqarish va ularni sotish bo'yicha amalga oshirmoqchi bo'lgan rejalari haqida ma'lum qilib, bu jarayonda yuzaga kelishi mumkin bo'lgan masalalar yuzasidan tegishli ma'lumotlar oldi.

Uchrashuvda ishlab chiqarish uchun kerakli bo'lgan mahsulotlar ro'yxati shakllantirilib, ularni viloyatga olib kelish bilan bog'liq tashkiliy masalalar bo'yicha ham hamkorlikda ish tashkil qilishga kelishildi.

2024-10-08 09:13:11